

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

QO‘lyozma huquqida

UDK: 336:336 И(575.1)

ASHURBOYEV FARRUX ALISHER O‘G‘LI

**TASHQI QARZLARNI JALB QILISHDA YEBROBONDLARNING
AHAMIYATI**

**70410401 - “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar: i.f.n. dotsent. O. Komolov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

21 - sonli bayonnoma « 26 » aprel 2023-yil.

Kafedra mudiri Xudoyqulov X.X.




imzo sana

Ilmiy rahbar: Komolov O.



imzo sana

Talaba: Ashurboyev F.A.



imzo sana

Dissertasiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida 2023 yil
" 19 " may

№ 116F-01/6 raqami bilan ro'yxatga olindi

ANNOTATSIYA

Tashqi qarzlarni jalb qilishda yevrobondlarning ahamiyati mavzusida yozilgan dissertatsiya respublikamizda dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mamlakatimiz tashqi qarzi hamda rivojlanishning hozirgi bosqichida xalqaro yevrobond bozorining faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro yevrobond bozorida ishtirok etish istiqbollari va rivojlanish tendentsiyalari doirasida ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa olimlarning tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi shakllantirildi.

O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida moliyaviy institutlar investitsion portfelini diversifikatsiya qilishda islomiy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:** Xalqaro yevrobondlar, fond bozori, rivojlanayotgan moliyaviy bozorlar, fond birjalari, moliya bozori, obligatsiya, emitent, emissiya, investor, tashqi qarz, xorijiy investitsiya, xalqaro moliya.*

ABSTRACT

The dissertation written on the importance of hybrid bonds in attracting foreign loans is one of the topical topics in our republic. Therefore, during the research, we worked within the framework of the foreign debt of our country and the peculiarities of the international Eurobond market at the current stage of development, the prospects of the participation of the Republic of Uzbekistan in the international Eurobond market, as well as the peculiarities and characteristics of the international bond market. Development trends. In particular, research works of other scientists on the topic, scientific views of local and foreign scientists, scientific articles, local regulatory documents on the topic were studied, and a literature review was formed.

Based on the studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on the possibilities of using Islamic tools in diversifying the investment portfolio of financial institutions.

Keywords: *International Eurobonds, stock market, emerging financial markets, stock exchanges, financial market, bonds, issuer, issue, investor, foreign debt, foreign investment, international finance.*

MUNDARIJA

Annotasiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
I bob. KIRISH.....	8
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II bob. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish.....	16
2.2. Mavzuga oid ilmiy-amaliy qarashlar sharhi.....	17
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy xujjatlar sharhi.....	20
2.4. Xulosa.....	22
III bob. METODOLOGIYA.....	24
3.1. Tadqiqot dizayni.....	24
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	24
3.3. Tahlil uchun qo'llanilgan usullar.....	25
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	25
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	25
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar.....	26

IV bob. TAHLIL VA NATIJALAR.....	28
4.1. Fond bozori yevrobondlarni jahon miqyosida chiqarish va joylashtirish mexanizmi sifatida.....	28
4.2. Xalqaro yevrobond bozoriga kirish maqsadlari va mablag'larni boshqarish samaradorligi	37
4.3. O‘zbekistonning global suveren kredit reytingidagi o‘rmini yaxshilash yo‘llari.....	51
V bob. XULOSA.....	59
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	59
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	60
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	65

I BOB. KIRISH

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunga kelib aksariyat mamlakatlarda davlat qarzi hajmi va qarz yuki darajasi sezilarli darajada oshayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa iqtisodiyoti rivojlangan va Yevropa ittifoqi davlatlarining so‘nggi yillarda jami qarzlari hajmi YaIM ga nisbatan xalqaro tavsiya etiladigan chegaraviy me‘yorlardan bir necha foizlarga o‘shib borayotganligini qayd etish mumkin. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda dunyo mamlakatlarining jami davlat qarzi rekord darajaga etib 303 trln. AQSh dollari yoki jaxon YaIMni 351% ni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich AQSh da 30,1 trln. AQSh dollar yoki YaIMga nisbatan 137% ni, Yaponiyada YaIMga nisbatan 257%ni, Buyuk Britaniyada esa YaIMga nisbatan 96%ni tashkil etgan. Jahon tashqi qarzining 62%i AQSh va Yevropa ittifoqi mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelsa, Yaponiya va Buyuk Britaniya davlatlarini qo‘shib hisoblaganda 77% atrofidagi ulush ushbu davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (Jahon banki, 2021). Albatta rivojlangan davlatlarda rivojlanayotgan yoki o‘tish davridagi mamlakatlarga nisbatan davlat qarzlari belgilangan chegaraviy me‘yorlardan yuqori bo‘lsada, ularda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va YaIM xajmining yuqori ekanligi qarzlarni bog‘liq xarajatlarni qoplash imkoniyati yuqori hisoblanadi. Bugungi kunda davlat qarzlarini samarali boshqarish, qarzlarni jalb qilishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish borasida tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy-moliyaviy integratsiyalashuv sharoitida jahon moliya bozorida qarz instrumentlari bilan bog‘liq operatsiyalarning xajmi yuqori sur‘atlar bilan o‘shib borishi oxirgi yillarda davlat qarzi xalqaro moliya tashkilotlari shuningdek, moliyaviy ekspert-mutaxassislar va ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Davlat qarzi xalqaro siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Davlat qarzlarini samarali boshqarilishi davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash bilan bir qatorda turli iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash lozimki, xalqaro moliya bozoridan qarz jalb qilishda zamonaviy